

Samarqand viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim


2025/2026- o'quv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

- II. **2025/2026**-o'quv yili boshida Samarqand viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni **80 ta** bo'lib, **2022/2023**-o'quv yiliga nisbatan ularning soni **3** taga, ya'ni **3,7 %** ga kamaygan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni 2025/2026-o'quv yili boshida **10 tani** tashkil etgan va 2022/2023-o'quv yiliga nisbatan **2 taga** oshgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining buyrug'iga asosan kasb-hunar maktablari va kollejlar tugatilib, texnikumga o'zgartirilganligi sababli jami texnikumlar soni **70** taga yetdi.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026-o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Samarqand viloyati	10	70
<i>shaxarlar:</i>		
Samarqand sh.	10	11
Kattaqo'rg'on sh.		4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo		3
Bulung'ur		3
Jomboy		3
Ishtixon		4
Kattaqo'rg'on		4
Qo'shrabot		3
Narpay		3
Payariq		4
Pastdarg'om		8
Paxtachi		4
Samarqand		2
Nurobod		3
Urgut		8
Toyloq		3

Viloyat bo'yicha jami akademik litseylar Samarqand shahrida **10 tani tashkil etmoqda**. texnikumlar bo'yicha Samarqand shahrida (**11ta**), Pastdarg'om va Urgut tumanlarida (**8 ta**) eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatimizda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar sonida umumiy o'sish kuzatilmoqda. 2025/2026-o'quv yili boshida 2022/2023-o'quv yiliga professional ta'lim tashkilotlarigda qabul qilinganlar soni sezilarli darajada oshib, **6,5 ming nafargacha** (22,8 %) ko'paygan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Kuzatilayotgan davr mobaynida akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish ko'rsatkichi ham o'sganini ko'rish mumkin – **2,1 ming nafargacha (14,3%)** oshgan. Texnikumlarda esa qabul qilinganlar soni – **26,7 ming nafargacha, (4,4 m.)** ga oshgan



Qabul qilingan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Samarqand	2,1	26,7
<i>shaxarlar:</i>		
Samarqand sh.	2,1	5,1
Kattaqo'rg'on sh.		2,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo		0,8
Bulung'ur		0,9
Jomboy		0,7
Ishtixon		2,3
Kattaqo'rg'on		1,1
Qo'shrabot		1,0
Narpay		2,2
Payariq		1,7
Pastdarg'om		2,7
Paxtachi		0,9
Samarqand		0,7
Nurobod		0,5
Urgut		3,1
Toyloq		1,0

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha Samarqand shahrida (**2,1 ming nafar**), texnikumlar bo'yicha – Samarqand shahrida (**5,1 ming nafar**) va Urgut tumanida (**3,1 ming nafar**) eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

So'nggi yillarda Samarqand viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni ortib bormoqda. 2025/2026-o'quv yili boshida 2022/2023-o'quv yiliga nisbatan ularning soni **33,7 ming nafarga** ko'payib, **56,3 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarga kelsak, 2025/2026-o'quv yili boshida ularning soni **4,0 ming nafarni** tashkil etgan va 2022/2023-o'quv yiliga nisbatan **17,5 % ga** ko'paygan.

Yuqorida qayd etilgan vaqt oralig'ida texnikumlardagi o'quvchilar sonini ortishi kuzatilgan. 2025/2026-o'quv yili boshiga kelib, 2022/2023-o'quv yiliga nisbatan texnikumlarda esa **33,0 ming nafarga** ko'paygan.



Tahsil olayotgan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026-o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Samarqand	4,0	52,3
<i>shaxarlar:</i>		
Samarqand sh.	4,0	11,1
Kattaqo'rg'on sh.		3,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo		1,5
Bulung'ur		1,9
Jomboy		1,4
Ishtixon		4,2
Kattaqo'rg'on		2,1
Qo'shrabot		1,8
Narpay		3,4
Payariq		3,5
Pastdarg'om		5,5
Paxtachi		1,9
Samarqand		1,4
Nurobod		1,0
Urgut		6,5
Toyloq		1,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

So'nggi yillarda viloyatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarini bitirganlar sonida sezilarli o'sish kuzatilgan. 2025-yilda, 2022-yilga nisbatan, ularning umumiy soni **28,9 %** ga oshib, **19 886 nafarni** tashkil etgan.

Bitiruvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025- yil uchun, ming kishi)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Samarqand	1,5	18,3
<i>shaxarlar:</i>		
Samarqand sh.	1,5	3,9
Kattaqo'rg'on sh.		0,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo		0,6
Bulung'ur		0,9
Jomboy		0,4
Ishtixon		1,6
Kattaqo'rg'on		0,4
Qo'shrabot		0,8
Narpay		0,7
Payariq		1,2
Pastdarg'om		2,0
Paxtachi		0,7
Samarqand		0,7
Nurobod		0,4
Urgut		2,4
Toyloq		0,7

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2025/2026-o'quv yili boshida Samarqand viloyatidagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)ning umumiy soni **3 332 nafarni** tashkil etgan va 2022/2023-o'quv yiliga nisbatan **1 298 nafarga**, ya'ni **38,9 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)

2025/2026-o'quv yili boshida akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **401 nafarni** tashkil etgan. Texnikumlarda esa ushbu ko'rsatkich **2 931nafarni** tashkil etdi.

Akademik litseylar



Texnikumlar



Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026-o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Samarqand	401	2 931
<i>shaxarlar:</i>		
Samarqand sh.	401	581
Kattaqo'rg'on sh.		142
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo		83
Bulung'ur		84
Jomboy		79
Ishtixon		186
Kattaqo'rg'on		125
Qo'shrabot		76
Narpay		195
Payariq		234
Pastdarg'om		330
Paxtachi		131
Samarqand		73
Nurobod		88
Urgut		391
Toyloq		133

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

[Texnikumdagi pedagog xodimlar soni \(jami\)](#)

VII. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini,

shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Samarqand viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – 1 o'rta ta'lim shakli "Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylarning statistik hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi va Ijtimoiy
soha statistikasi bo'limi

Manzil: Samarqand shahar U.
Tursunov ko'chasi 82 uy
El. manzil: info@samstat.uz
Tel.: 66-235-33-16 IP(3100)



